

Dinora Aripjanova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalalari xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida tahlil qilinadi. Ilg'or xorijiy tajribalar, xususan, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Singapur va AQShda qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida rahbarlarning malakasini oshirish, samarali strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar va inson resurslarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajribalarni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar. maktabgacha ta'lim, boshqaruv faoliyati, rahbar malakasi, xorijiy tajriba, ta'lim tizimi, innovatsion yondashuv, strategik rejalashtirish.

Динора Арипжанова

Независимого исследователя Института переподготовки и
повышения квалификации директоров и
специалистов дошкольных образовательных организаций

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования управленческой деятельности руководителей дошкольных образовательных организаций на основе опыта зарубежных стран. Изучается передовой зарубежный опыт, в частности, современные подходы к управлению, применяемые в европейских странах, Японии, Сингапуре и США, анализируются их особенности. Также освещаются возможности адаптации зарубежного опыта к национальному контексту в рамках реформ в сфере дошкольного образования в Узбекистане, включая повышение квалификации руководителей, эффективное стратегическое планирование, внедрение инновационных подходов и совершенствование управления человеческими ресурсами.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческая деятельность, квалификация руководителя, зарубежный опыт, система образования, инновационный подход, стратегическое планирование.

Dinora Aripjanova

Independent Researcher of the Institute for Retraining and Advanced Training of
Directors and Specialists of Preschool Educational Organizations

IMPROVING THE MANAGEMENT ACTIVITIES OF HEADS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Abstract. *This article analyzes the issues of improving the managerial activities of heads of preschool educational organizations based on the experience of foreign countries. The advanced foreign experience is studied, in particular, modern management approaches applied in European countries, Japan, Singapore and the USA, and their features are analyzed. The article also highlights the possibilities of adapting foreign experience to the national context within the framework of reforms in the field of preschool education in Uzbekistan, including leadership development, effective strategic planning, the introduction of innovative approaches and the improvement of human resource management.*

Key words: *Pre-school education, management activities, leadership qualifications, foreign experience, education system, innovative approach, strategic planning.*

Kirish

Dunyoda maktabgacha ta'limni takomillashtirish hamda ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonlarni mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshganidan bilish mumkin. Bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT) lari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga yangi talablar qo'ymoqda. Xususan, rahbarlardan nafaqat pedagogik jarayonni tashkil etish, balki zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish zarurligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashuv sharoitida ta'lim tizimida raqobat kuchaymoqda va bu MTT dan ham yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni talab qiladi. Ikkinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda va rahbarlardan bu imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab qiladi. Uchinchidan, ota-onalarning ta'limga bo'lgan talablari oshib bormoqda va MTT ularning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili

Ta'lim muassasalari uchun boshqaruv kadrlarni tayyorlash va o'quv jarayonini boshqarish, maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirish hamda MTT

rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari R.Djurayev, U.Inoyatov, S.Turg'unov, M.Yuldashev, A.Shin kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.Shin maktabgacha ta'limni boshqarishning milliy xususiyatlarini o'rgangan va boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bergan [6].

R.Djurayev esa innovatsion boshqaruvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari yangi g'oyalarni qabul qilishlari, ularni sinab ko'rishlari va muvaffaqiyatli tajribalarni joriy etishlari kerak [2]. U.Inoyatov turli davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri boshqaruvning samaradorligidir [5].

I.Kurbanov ta'kidlaganidek, maktabgacha ta'limni boshqarishda liderlik muhim rol o'ynaydi. Rahbarlar o'z jamoalariga ilhom berishlari, ularni qo'llab-quvvatlashlari va o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari kerak [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni olib borish davomida quyidagi usullardan foydalanildi: adabiyotlar tahlili (ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xorijiy tajribalar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi); pedagogik kuzatuv (maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlari kuzatilib, amaliy holat tahlil qilindi) hamda qiyosiy tahlil (xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'limni boshqarish tajribalari O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslandi).

Natijalar

Tadqiqot davomida Angliya, AQSh, Germaniya, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlari boshqaruv modeliga oid manbalar o'rganildi. Izlanishlar natijasida quyidagilar aniqlandi:

1) *Strategik yondashuv*: Angliyada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun "Leadership Qualification in Early Years" dasturi mavjud bo'lib, bu orqali ular strategik rejalashtirish va jamoani boshqarish bo'yicha chuqur bilimlar [8];

2) *Professional rivojlanish*: AQShda rahbarlarning doimiy malaka oshirishi NAEYC (National Association for the Education of Young Children) kabi tashkilotlar orqali tizimlashtirilgan bo'lib, ular onlayn va oflayn kurslar, interaktiv mashg'ulotlar orqali o'z salohiyatini oshirish [9];

3) *Hamkorlik madaniyati*: Germaniyada rahbarlar "kollegial maslahatlashuv" asosida hamkorlikda qaror qabul qilish va tajriba almashishlari;

4) *Innovatsion yondashuv*: Singapurda "Early Childhood Leadership Training" dasturi rahbarlarni texnologik boshqaruv va raqamli ta'lim texnologiyalariga tayyorlash [7];

5) *Refleksiya va kuzatuv*: Yaponiyada "Lesson Study" amaliyoti orqali rahbarlar faoliyatini tahlil qilib, doimiy o'zgarish va yangilanishni ta'minlaydi [3].

Yuqorida keltirilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, MTT rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tashkil etishda rahbardan shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim tendensiyalari asosida boshqaruv faoliyatini chuqur bilishi va o'zida zaruriy

kompetensiyalarini shakllantira olishi va ulardan kelgusida kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot davomida O'zbekistondagi MTT rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- rahbarlar uchun malaka oshirish dasturlarini qayta ishlab chiqish va joriy etish;
- xorijiy davlatlarning eng so'nggi ilg'or tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish;
- innovatsion boshqaruv usullarini (loyihaviy boshqaruv, strategik menejment, kouching va boshqalar) joriy etish;
- pedagogik jamoani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni (seminarlar, treninglar, tajriba almashish) tashkil etish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarni (ommaviy uchrashuvlar, maslahatlashuvlar, tadbirlarga jalb qilish) amalga oshirish kerak.

Muhokama

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish zarurligini tasdiqladi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etish, rahbarlarning kasbiy kompetentligini oshirish, innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash ta'lim sifatini oshirishga va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida MTT rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar ham aniqlandi. Bular: liderlik va jamoani boshqarish qobiliyati; innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash; pedagogik jamoani rivojlantirish va ularning kasbiy o'sishiga ko'maklashish; ota-onalar bilan samarali hamkorlikni ta'minlash; moliya va resurslarni samarali boshqarish; ta'lim sifatini oshirish va bolalarning rivojlanishini ta'minlash va hokazolar.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlari va farmonlari bilan hamohangdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirish, rahbar kadrlarning malakasini oshirish va xorijiy tajribalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan [1].

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, MTT rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini oshirish, ularning zamonaviy texnologiyalarga moslashuvi va liderlik salohiyatini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Angliya, AQSh, Germaniya, Singapur va Yaponiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, rahbarlarning muntazam professional rivojlanishini ta'minlash, innovatsion fikrlashni

rag'batlantirish va xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish orqali ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim rahbarlari uchun malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish, kompetensiya asosli yondashuvlarni joriy etish va ilmiy-metodik ta'minotni kuchaytirish orqali ushbu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

2. Djuraev, R. X. (2024). Development of Scientific Potential in Children of General Education School. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 140-146.

3. Fernandez, C., & Yoshida, M. (2004). Lesson study: A case of a Japanese approach to improving instruction through school-based teacher development. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.

4. I.Kurbanov. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda direktorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2022/№ 8, 157-161 betlar.

5. Inoyatov U. I. Theoretical and organizational-methodical bases of management and control of the quality of education in professional colleges : дис. – Doctoral dissertation in pedagogical sciences.-Tashkent:«ISSPO», 2003.-330 pages.

6. Vasilyevna, A. S. (2021). New Methodological Approaches to Improving the Quality of Pedagogical Staff of Preschool Education in the Republic of Uzbekistan. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).

7. <https://niec.edu.sg/course/advanced-diploma-in-early-childhood-centre-leadership-adecl/>

8. <https://www.gov.uk/guidance/early-years-leadership-national-professional-qualification>

9. <https://www.naeyc.org/about-us/people/mission-and-strategic-direction>